

**“Indorama Kokand Fertilizers and
Chemicals” AJ Ijroiya organining 2024-yil
“29” UOL dagi
1-son yig‘ilishi qaroriga
asosan tasdiqlandi**

**“Indorama Kokand fertilizer and Chemicals” AJ da raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari
talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Muddat	Mas‘ul ijrochilar
1	Monopoliga qarshi komplayens tizimi faoliyatini tartibga soluvchi ichki Nizom ishlab chiqish va tasdiqlash.	2 avgust 2024 yilga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs
2	Bir yilga mo‘ljallangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish bo‘yicha “Yo‘l xarita” sini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Har yili 25-dekabrga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs
3	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimoliligini aniqlash va baholash: Bunda, Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o‘rganish. Korxonada o‘z ustun mavqei suiste‘mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish.	Har yili dekabr oyiga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim
4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini aniqlash va ularning oldini olish: Bunda, Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste‘molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan choralarini ishlab chiqish. Korxonada tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o‘tkazilishida raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim
5	Monopol korxonada tomonidan sotiladigan, ular bo‘yicha ushbu subyektning ustun mavqei e‘tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopoliya yuqori va monopoliya past narxlar o‘rnatilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni o‘rganish. Korxonada (tarkibiy bo‘linmalari) va boshqa yuridik shaxslar o‘rtasida tuziladigan shartnomalarni o‘rganib borish . Bunda:	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo‘yicha mas‘ul shaxs Yuridik bo‘lim

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Muddat	Mas'ul ijrochilar
	<p>- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining;</p> <p>- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining;</p> <p>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</p>	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs, Yuridik bo'lim
6	Insafsiz raqobat holatlariga yo'l qo'ymaslik. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlariga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
7	Raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
8	Raqobat qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgarishlarni o'rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs, Yuridik bo'lim
9	Korxonada xodimlari orasida "Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish" mavzusida seminarlar va muloqotlar o'tkazish	Bir yilda kamida 2 marta	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
10	Faoliyat davomida xodimlarga muntazam ravishda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berib borish.	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
11	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash va tasdiqlash uchun bosh directorga kiritish	Har yili 1-fevralga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
12	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni korxonada joylash va uch ish kuni Ichida monopoliyaga qarshi organga yuborish.	Har yili 4-fevralga qadar	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs
13	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashuvini amalga oshirish	Doimiy	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi bo'yicha mas'ul shaxs

Bosh Director

Awinash Kumar



Z.G'oporov

Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yich mas'ul shaxs